

TERGOV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH, MUAMMO VA YECHIMLAR

Safarova Dilbar Baxrilla qizi

Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi kursanti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada tergov faoliyatini amalga oshirishda yuzaga kelayotgan muammolarni o'rganish, tergov organlari faoliyatining tashkiliy shakllarini takomillashtirish bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasini har tomonlama chuqur o'rganib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan samarali yechimlar bayon etilgan.

Аннотация:

В данной статье описано исследование проблем, возникающих при осуществлении следственной деятельности, комплексное изучение опыта развитых демократических стран по совершенствованию организационных форм деятельности следственных органов, а также эффективные решения по их совершенствованию.

Annotation:

In this article, the study of the problems arising in the implementation of investigative activities, the comprehensive study of the experience of developed democratic countries in improving the organizational forms of the activities of investigative bodies, and effective solutions for their improvement are described.

Kalit so'zlar: tergov faoliyati, tergovga qadar tekshiruv, sud, huquqni muhofaza qilish organlari, tergovchining mustaqilligi, xolislar, zamonaviy texnologiyalar.

Ключевые слова: следственная деятельность, досудебное расследование, суд, правоохранительные органы, независимость следователя, беспристрастность, современные технологии.

Key words: investigative activity, pre-trial investigation, court, law enforcement agencies, independence of the investigator, impartiality, modern technologies.

So'nggi yillarda mamlakatimizda jamiyatning turli jabhalarida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Shular qatori, sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohotlarni va ularni yuzasidan qilinayotgan ishlarni alohida e'tirof etish joiz. "2022-2026-yillargamo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiyva zarur shartiga aylantirishga doir ikkinchi ustuvor yo'nalish asossida qabul qilinganbir qator

normativ-huquqiy hujjatlarda qonuniylikni qat'iy ta'minlash, "Qonun —ustuvor, jazo - muqarrar" tamoyilini bosh mezonga aylantirish masalasiga alohida urg'u berilgan. Xususan, Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida huquqiy davlat barpo etish va unda huquqni muhofaza qiluvchi organlarini mamlakatda huquq-tartibotni ta'minlashdagi rolini inobatga olib, "Hech kimning unutishga haqqi yo'q – qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat", deb ta'kidlaganlarini aytib o'tish joiz. Qonun ustuvorligini, insonning huquq va erkinliklari himoyasini ta'minlash har bir davlat organining asosiy vazifasi hisoblanadi. Zero, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi[3]. Bu tamoyillar Konstitutsiyamizda aniq belgilab berilgan bo'lsada, ular amalda o'zining to'liq ijrosini topmoqda deya olmaymiz. Buning muhim sabablaridan biri tergovga qadar tekshiruv jarayonida fuqarolarning huquqlari va erkinliklari davlat organlari hamda mansabdor shaxslar tomonidan cheklanishi, poymol qilinishining ehtimoli ko'pligi bilan bog'liq. Shuning uchun ham bugungi kunda huquqiy normalarni erkinlashtirish va yangilash tergov organlari faoliyatining tashkiliy shakllarini takomillashtirish bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasini har tomonlama chuqur o'rganib chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda

Jinoyatchilikka qarshi kurash va oldini olish masalalariga bunday e'tibor qaratilishi bejiz bo'lmasdan, u xalqimizning azaliy qadriyatlarining mahsuli sifatida, huquqiy ongi va bilimining o'sishi, tinch va osuda turmush kechirish va mehnat qilishiga halaqit beruvchi har qanday salbiy illatlarga murosasizligi oshib borayotganligini ko'rsatadi. Hozirda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimlaridagi mavjud bo'lgan tergov organlari oldiga jinoyatlarni oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni tez va to'la ochish va fosh etishga yuksak talablar qo'yilmoqda, chunki ularning aynan shu masalalarga qaratilgan faoliyati, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatida alohida o'rin tutadilar. Tergov ishlarining yuqori darajada tashkil etilishi va amalga oshirilishi – jinoyatchilikni oldini olishning eng samarali shakllaridan biri hisoblanadi, chunki jinoyat sodir etgan shaxsning tezda fosh etilmasligi jamoat tartibi va jamoatchilik xavfsizligiga jiddiy ziyon yetkazishi mumkin. Vaholanki, fosh etilmagan jinoyatchi yana boshqa jinoyatlarni sodir etishi hamda o'z jinoiy faoliyatiga ayrim irodasi bo'sh va sodda kishilarni, voyaga yetmagan shaxslarni jalb qilish ehtimoli yuqori hisoblanadi. Tergovchilar zimmasiga dastlabki tergov jarayonida jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni atroflicha o'rganish hamda to'la aniqlash, tergov natijasiga ko'ra ularni bartaraf etish maqsadida tegishli davlat, hokimiyat idoralari, korxonalar va jamoat tashkilotlariga taqdimnomalar kiritish hamda ularning muhokama qilinishida shaxsan faol qatnashish talab qilinmoqda. Chunki tergovchi turli toifadagi jinoyatlarga oid ishlarni tergov qilish jarayonlarida jinoyat sodir etilishiga olib kelgan barcha holatlarni to'la aniqlaydi, shu sababli ham shunday jinoyatlar sodir etilishini oldini olish uchun nimalar qilinishi kerak ekanligini undanda yaxshi biladigan shaxs

bo'lmaydi. Bundan tashqari tergov organi tomonidan ma'lum bir hududda muayyan toifadagi jinoyat ishlarini tergov qilinishi natijasida aynan bir ko'rinishdagi jinoyatlarning sodir etilishlari sabablari va imkon bergan shart-sharoitlar oydinlashadi, bu esa navbatida mazkur hududdagi mutasaddi idoralar tomonidan shunday jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan keng qamrovli turli yo'nalishdagi profilaktik tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ularning ijrosini izchil ta'minlagan holda shu toifadagi jinoyatlarning sodir etilishiga yo'l qo'yilmasligini ta'minlaydi. Dastlabki tergov – bu jinoyat ishini uzil-kesil hal etilishi uchun shart-sharoit yaratuvchi, sudgacha bo'lgan protsessual faoliyatdir. Tergovchilarning faoliyati mashaqqatli va ko'p qirrali bo'lib, tom ma'noda o'ziga nisbatan haqiqiy ijodiy munosabatda bo'lishlikni talab etadi hamda shu bilan birga u faxrli va iftixorlidir. Dastlabki tergovning sifati va samaradorligi, alohida jinoyat ishlari tergovining muvaffaqiyati, eng avvalo, tergovchilar tomonidan Jinoyat- protsessual qonunning barcha tamoyillariga to'la rioya qilishlariga bog'liqdir. Tergovchining ko'p qirrali faoliyatida mayda-chuyda bo'lmaydi, barcha narsa muhim hisoblanadi. Agarda tergovchi hodisa sodir bo'lgan joyga kechikib kelsa, izlar o'chib, yo'q bo'ladi, “tilsiz guvohlar” hisoblangan ashyoviy dalillar yo'qotiladi va jinoyatni fosh etish qiyinlashadi. Muhim guvoh o'z vaqtida chaqirilib, so'roq qilinmasa, u muhim holatlarni esidan chiqarib qo'yishi mumkin yoki jinoyatchi bundan foydalanib, unga ta'sir o'tkazsa, haqiqat yuzaga chiqmay qoladi. Tintuv kechiktirilib, yuzaki o'tkazilsa, jinoyat joyidan olib ketilgan qimmatliklarni va jinoyatchini fosh etuvchi dalillarni topish qiyinlashadi. Barcha holatlarni ikir-chikirigacha aniqlamasa, dalillarga to'g'ri baho bermasa, naholislikka yo'l qo'ysa, aybsiz kishi jabrlanib qoladi. Davlat tomonidan tergovchiga qonun bilan ko'plab muhim vakolatlar va hokimiyat berib qo'yilgan, shu sababli ham u xolislik, vijdoniylik, insonparvarlik, inson taqdiri uchun mas'uliyatni his etish kabi sifatlarga ega bo'lmog'i darkor. Fuqarolarni ushlab, qamoqqa olish, jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetti o'lchab emas, ko'plab yetti marotaba o'lchab, bir kesishi zarur. Tergovchining vazifasiga faqatgina ayblovchi dalillarni to'plashdan iborat bo'lmasdan, balki haqiqatni aniqlash, aynan shu gumon qilinuvchi va ayblanuvchini aybsizligini (tergovda aniqlangan holatlar va to'plangan dalillar yig'indisiga xolisona baho bergan holda) isbotlash ham kiradi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 36-moddasiga asosan tergovchi o'z yurituvidagi ish yuzasidan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarga topshiriqlar berish vakolatiga ega. Tergovchi topshiriqlari yozma shaklda bo'lib, uning bajarilishi majburiydir. Shuningdek, JPKning 347-moddasida nazarda tutilganidek har bir tergovchi o'z yurituvida bo'lgan jinoyat ishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining hududida istalgan joyda biror tergov harakatini shaxsan o'zi bajarishga yoxud uni o'tkazishni boshqa tergovchiga yoki surishtiruvchiga topshirishga haqlidir. Yuqorida qayd etilganidek topshiriqning bajarilishi majburiy bo'lib, agar bajarmagan taqdirda tergovchi tomonidan ushbu xodimga nisbatan taqdimnoma chiqariladi va topshiriqni bajarmagan xodimga intizomiy jazo choralari qo'llanadi. Tergovchining topshiriqlarining bajarilishi dalillarni to'plash, tekshirish hamda baholashda va jinoyatlarni tez, to'la hamda

xolisona ochilishida muhim ahamiyat kasb etadi Shubhasiz, hayotimizdagi barcha tarmoq va jarayonlarda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar qatorida huquqni muhofaza qilish sohasida ham joriy qilinayotgan islohotlar o'zining samarasi va natijasini bera boshladi. Eng muhimi, bu islohotlar ijtimoiy hayot va davlat qurilishining demokratik o'zgarishlar yo'lida bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minladi. Lekin, shu bilan birga, shuni ta'kidlashimiz zarurki, ijtimoiy taraqqiyot odimlari, jamiyatimizda ro'y berayotgan, uzoqniko'zlab amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar sud-huquqtizimiga joriy qilinayotgan islohotlarni tanqidiy baholab, ularniyanada chuqurlashtirishni va qat'iyatlik bilan olib borishni talab etmoqda.

Yurtimizda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish va shaxslarning huquq va erkinliklarini ishonchli ta'minlash borasida ham chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 2020 yil 10 avgust kuni "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" Prezident Farmoni PF-6041-son qabul qilindi.

Farmonga muvofiq, jinoyatlarni fosh etish faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilar belgilanadi:

- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan ariza, tushuntirish yoki ko'rsatuvlar olishni mazkur jinoyat ishi yurituvida bo'lgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirish (belgilangan tartibda himoyachidan voz kechilgan hollar bundan mustasno);
- jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni ushlab turish muddatini u haqiqatda ushlangan vaqtdan boshlab hisoblash;
- shaxs amalda ushlangan paytdan boshlab, tegishli mansabdor shaxs u bilan bog'liq surishtiruv va tergov harakatlarini o'tkazishdan oldin advokat bilan xoli uchrashuvni ta'minlashi shartligini belgilash;
- aybiga iqrорlik bo'yicha kelishuv institutini joriy qilish;
- o'ta og'ir jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga oid ishlar bo'yicha, shuningdek, shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash masalasi ko'rib chiqilayotganda himoyachining ishtirok etishi shartligini belgilash.

Shuni ochiq-oydin tan olish lozimki, bu sohada erishilgan ijobiy natijalarga qaramay, sud-huquq sohasida hamon sovet tizimining asoratlari sezilmoqda. Lekin bugungi kunda, sud faoliyatiga doir qabul qilingan qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar umume'tirof etilgan xalqaro demokratik me'yorlarga borgan sari moslashtirilayotgan bo'lsa-da, afsuski, sudyalari, prokuratura va tergov organlari xodimlari, bir so'z bilan aytganda, qabul qilingan yangi qonunlarni hayotga tatbiq etishi lozim bo'lgan kishilarning dunyoqarashi va tafakkuri ancha qiyinchilik bilan o'zgaryapti. Jinoyat-prosessual qonunchilikda tergovchining sessual mustaqilligi nima ekanligi, uning mohiyati, mazkur tushunchaning mazmuni aniq

belgilanmagan. Shuning uchun ham mazkur masalaning mohiyati yuzasidan aniq to'xtam mavjud emas. Shuni qayd etish joizki, V.V.Ulanov fikricha, tergov organi rahbari yoki prokuror tomonidan tergovchi faoliyatining nazorat qilinishi uning prosessual mustaqilligiga salbiy ta'sir o'tkazmaydi. V.G.Mkrtchyan esa boshqa fikrda, unga ko'ra jinoyat-prosessual qonunchiligida shunday normalar borki, ular tergovchining prosessual mustaqilligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, tergov yakuni bo'yicha prokuror tomonidan ayblov xulosasining tasdiqlanishi shunday holatlardan biridir. Amaldagi tartibga ko'ra prokuror ayblov xulosasini tasdiqlashi yoki kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan qo'shimcha tergovga qaytarishi mumkin (JPK 384-modda). Bir jihatga e'tibor qaratish kerakki, jinoyat prosessining institusional tuzilishiga ko'ra tergovchi prokuror va suddan butunlay mustaqil ravishda faoliyat yurita olmaydi. Prokuror va sud nazorati tergovchilar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan turli o'zboshimchaliklardan himoya qiladi, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarining ehtimoliy buzilishidan asraydi. Umuman olganda, tergovchining mustaqilligini bir necha yo'nalishlarda ko'rishimiz mumkin bo'ladi: 1) davlat organi, mansabdor shaxs, jamoat birlashmalari va ularning vakillarining har qanday ta'siridan xoliligi; 2) tergovchining o'zi faoliyat yurituvchi huquqni muhofaza qiluvchi organdagi va bevosita uning faoliyatini nazorat qilmaydigan yuqori turuvchi rahbarlardan mustaqillik. Huquqshunos olimlar Z.F. Inog'omjonova va G.Z. To'laganovalarning fikricha, prokuror jinoyat prosessining eng faol ishtirokchilaridan biri bo'lib, faqat u jinoyat ish yurituvining barcha bosqichlarida, ya'ni jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidan to shaxsga nisbatan chiqarilgan sudning hukmi kuchga kiritilgunga qadar ishtirok etadi. Prokuror barcha jinoyat ishlari ko'rilishiga boshchilik qilib, ishlar bir bosqichdan keyingisiga o'tishida muhim vazifalarni ado etadi. Shu bilan birga, uning prosessual holati ham turli bosqichlarda turlicha ko'rinishga ega bo'ladi. Prokurorning tergovchi bilan o'zaro munosabati, tergovchining mustaqilligiga ta'siri xususida olimlar turlicha fikr-muloxazalarni bildirganlar. Jumladan, G.Z.Tulaganovaning fikricha, tergovchining mustaqilligini yanada mustahkamlash maqsadida uning prokuror bilan birgalikda qamoqqa olish masalasini hal etishda ishtirok etishi shartligi qonunda belgilanishi kerak. Tergovchi ishning holatlari bilan ko'proq tanish bo'lgani uchun aynan mazkur chorani qo'llash lozimligini sudda isbotlashda prokurorga katta yordam beradi.

Bundan tashqari tergov faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha zamonaviy dunyo talablaridan kelib chiqib davlat rahbari va hukumat tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jinoyatlarni tergov qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-2898-son qarori shular jumlasidandir. Ushbu qarorda jinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalarining eng muhim vazifasi deb hisoblansin:

-birinchidan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi va aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligini kafolatlovchi jinoyat-protsessual normasini qat’iy ta’minlash;

-ikkinchidan, jinoyatlarni o‘z vaqtida fosh etish, har tomonlama, to‘la va xolisona tergov qilish, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirishda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustunligiga, ularning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishiga so‘zsiz rioya qilish;

-uchinchidan, surishtiruvchi va tergovchilarning chinakam protsessual mustaqilligini ta’minlash, ularga nisbatan noqonuniy ta’sir ko‘rsatish hamda faoliyatiga asossiz aralashishga yo‘l qo‘ymaslik;

-to‘rtinchidan, surishtiruvchi va tergovchilarga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, ularning moddiy va ijtimoiy ta’minoti masalalarini hal etish;

-beshinchidan, ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika bo‘linmalari faoliyatiga ilg‘or kriminalistik va ilmiy-texnik vositalarni, shuningdek ishlashning zamonaviy shakl va uslublarini keng joriy etish belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib shaxslarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sud va huquqni muhofaza qilish faoliyati hamda tergov faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirilsa qonunchilikda va tergov faoliyatida samarali o‘rish kuzatilishi mumkin. *Birinchidan*, tergovga qadar surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash uchun jalb qilinadigan xolislardan voz kechib zamonaviy texnologiyalardan foydalanib xolis talab qilinadigan holatlarda video tasvirga olish amaliyotiga joriy qilish. Bu bilan fuqarolarni ovoragarchiligini oldini olish va ish sifatini oshirishga yaxshilashga erishish mumkin. *Ikkinchidan*, tergovchilarning mustaqilligini oshirish orqali jinoyatlarni tez va to‘la ochishga va ularni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishga erishish mumkin. Bunda tergovchiga bo‘ladigan tashqi ta’sirlarni oldi olinishi va ularni vakolat ko‘lamini yanada kengaytirish mumkin. *Uchinchidan*, tergov faoliyatini amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va OAVdan keng foydalanish amaliyotini joriy qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"-T.2022.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi” –T. 2022-yil 20-dekabr
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.2024
- 4.2018-yilning 14-may kuni “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3723-sonli qarori. – B.149
- 5.O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi <https://lex.uz/docs/111460>

6. Botaev M.D. Tergov jarayonidagi ayrim muommolar // O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2012. – № 1. – B. 80-83 (12.00.12; № 12)
7. Botaev M.D. Tergovga qadar tekshiruv institutini takomillashtirish // Huquq va burch. – 2020. – № 7. – B. 56-57 (12.00.12; № 2).
8. Володина Л.М. Механизм обеспечения прав личности в российском уголовного процессе автореф: Дис. . д-ра юрид. наук. – Екатеринбург, 1999. – С. 150.
9. Косых В.Г. Расширение перечня оснований для продления срока проверки заявлений и сообщений о преступлениях // Уголовный процесс. – № 4. – 2007. – С. 18.
10. Jinoyat-protsessual huquqi. Umumiy qism. Darslik. Mualliflar jamoasi. // y.f.d..prof. G.Z.To‘laganova. y.f.n.. dots. S.M.Rahmonovalarning umumiy tahriri ostida. – Toshkent. TDYU, 2017. – B. 180.[11]
11. Гирько С.И. Деятельность милиции в уголовном процессе. – М., 2006. – С. 235-236.
12. M.X.Rustamboyev Jinoyat kodeksiga sharh – T. 2016. – B.
13. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi //URL:<http://www.lex.uz>
14. Yangibayev A., Maxmudov I. ichki ishlar organlarining yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishdagi roli //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 10 Special Issue. – S. 119-122.